

3

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI



Ro‘yxatga olindi: № BD 60211400-1.28

VOKAL ANSAMBLI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: *200 000 - San‘at va gumanitar fanlar*

Ta‘lim sohasi: *210 000 - San‘at*

Ta‘lim yo‘nalishi: *60211400 - Vokal san‘ati: akademik xonandalik*

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi VAN1204	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 5-6	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Vokal ansambli	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda san’at sohasida faoliyat olib boradigan ansambllarda xonandalik bo‘yicha mutaxassislik profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga badiiy jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san’at ta’lim muassasalarida malakali xonandalarni tarbiyalashga o‘rgatishdan iborat. «Vokal ansambli» fani bo‘yicha o‘qitish jarayonini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:</p> <p>Vokal ansambl repertuarni ijro etish uchun ijrochilik mahoratini o‘zlashtirish;</p> <p>-asarlarni uslubi, nozik tomonlari, psixologik ifodalanishini tushunib, shaklini sezib ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirish;</p> <p>-xonanda talabalarining kamer-vokal adabiyoti materiallari asosida ijrochilik mahoratlarini rivojlantirish, romans-qo‘shiqchilik adabiyoti bilan tanishish, badiiy didni tarbiyalash va ijro etilayotgan asarlarning uslubini tushuna bilish.</p> <p>II. Asosiy qism</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>Kirish</p> <p>1-Modul. Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar</p> <p>Talabalarining mazkur fanni o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Ta’limning zamonaviy interfaol metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o‘quv jarayonida unumli qo‘llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, “InterNET”, “ZiyoNET” kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish nazarda tutiladi.</p>			

1-mavzu. Talabalarining ovoz xususiyatlarini aniqlash, dastur tanlash.

Ilk darslarda o‘qituvch ansambl qatnashchilarining ovoz diapazoni, kuchi, temrbi, turi kabi xususiyatlarini aniqlab, ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda asar tanlash zarur.

2-mavzu: Ovozni rivojlantiradigan, baland ashulachilik pozitsiya ustida vokal mashqlar yordamida ishlash.

Talabalar ovoz tayanchida ashulachilik tovushini tashkil etishilishida to‘g‘ri tayanch bo‘la oladigan hissiyotni sezishi kerak xamda talabalarda ansambl ijrochiligi mahoratini rivojlantirish kerak. Baland ashulachilik pozitsiya ustida o‘qituvchining nazoratida har doim bo‘lishi kerak - vokal mashqlar yordamida, asarlar ijro paytida.

3-mavzu: Vokal ansamblida hamrohlarini eshitish va tinglay olishni, toza va aniq intonatsiyani, tembr jihatdan yagona ovozlar jarangini ishlab chiqish ustida ishlash.

Yosh xonandada ansambl bo‘lib kuylashda zarur sifatlarni tarbiyalash va vokal-ansambl texnikasini egallash lozim. Vokal ansamblida hamrohlarini eshitish va tinglay olishni har doim nazorat qilish, toza va aniq intonatsiyada kuylash, tembr jihatdan yagona ovozlar jarangini ishlab chiqish ustida ishlash kerak. Buning uchun xonanda talabalar muntazam ravishda bir-birini eshitib turish kerak.

4-mavzu: O‘zbek, rus yoki chet el kompozitori kamer-vokal ansambl.

Jahon musiqa adabiyotida duet, trio, kvartet va xok. ko‘plab vokal ansamblar mavjud. Matn tilining to‘g‘ri talaffuzi (o‘zbek, lotin, nemis, italyan, ingliz, rus va b.), milliy musiqaning stilistik jihatlari ustida ishlash. Asarning to‘g‘ri talaffuzi, milliy musiqaning stilistik jihatlari ustida ishlash. Asarning ijroviy timsoli, xarakterini chiqarish va tinglovchiga yetkazib berish ustida ishlash.

5-mavzu: Sahnada ijro etish

Bakalavr xonanda ijro etiladigan dasturida o‘z vokal-texnik va ifodani ijrosini aktyorlik mahoratini namoyish etishi kerak. Sahnada ijro etayotganda asar uslubining nozik tomonlarini, pisixologik ifodalanishini tushunib tinglovchiga yetkazib berishi lozim.

III. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Ushbu fan bo‘yicha ma’lum bir mavzularni o‘tib bo‘lingandan so‘ng, oliy ta’lim muassasasining xususiyatlaridan kelib chiqib amaliy mashg‘ulotlari olib borilishi nazarda tutiladi. Bu–nazariy o‘rganilgan bilimlarni, amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlari ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni

tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy ijro yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar turli shakllar bilan sinovlardan o‘tkaziladi. Fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko‘nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta’lim mazmuni shundan iboratki, talabalar o‘zlari tanlagan kasblari bo‘yicha chop etilgan dasrlıklar, o‘quv qo‘llanmalar, fikr-mulohazalarni va tajribalarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq. Talaba o‘rgana boshlagan qo‘shig‘ining muallifi, ijodiy faoliyati uning o‘ziga xos jihatlari va o‘zbek milliy musiqa madaniyatida tutgan o‘rni haqida o‘qib, bilib olishi zarur. So‘ngra qo‘shiqning so‘zlari uning mazmunini anglab yetmog‘i lozim. Keyinchalik qo‘shiq musiqasini, avval kuyini o‘rganishdan boshlaydi, so‘ngra garmoniyasi va qo‘shiq ijrosini fortepiano jo‘rligida o‘rganishi kerak. Shundagina talaba qo‘shiqning tabiati, mazmuni va xarakterini idrok etishi mumkin bo‘ladi.

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning amaliy ijrochilik xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Vokal ansambli fani bo‘yicha bilimlarini kengaytirish, ijro yo‘llarini mukammal o‘rganish;
- Vokal ansambli ijrochiligiga oid manbalarni to‘plash va ularni ijro qilishga erishish;
- Amaliy ijrochilik ko‘nikmasini mustahkamlash bo‘yicha ish olib borish;
- Vazn asoslari, nota va she‘r matni ustida ish olib borish;

3.

V. Ta’lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- ijodiy ijro dasturi talablari bo‘yicha repertuar va ijrochilikni takomillashtirish;
- vokal ansambli turlari;
- vokal ansambli repertuari *haqida tasavvurga ega bo‘lishi*;
- garmonik sezgirlikni rivojlantirish, ritmik strukturani his etishni;
- hamrohlarini eshitish va tinglay olishni;
- toza va aniq intonatsiyani;
- vokal mashqlarini bilishi va *ulardan foydalana olishi*;
- vokal texnikasining barcha turlaridan foydalanish;
- tembr jihatdan yagona ovozlar jarangini ishlab chiqishni;
- to‘g‘ri va muvofiqlashgan nafasni tashkil etishni;

	<p>- iboralash va dinamik nyuanslarni egallashni; -murakkab bo‘lmagan turli janrlardagi vokal asarlarini kuylash; -sahnada asarlarni ijro etish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i></p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Aqliy hujum; • Venn-diagramma; • guruhlarda ishlash; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va ijro qilish uchun loyihalar. • ijodiy dastur taqdimoti.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat asar ijro qilish.</p> <p style="text-align: center;">Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar .</p> <p>Talabalar bilimni nazorat qilish o‘quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq va Yakuniy nazorat 5 semestrda o‘tkaziladi.</p> <p>5chi semestr Oraliq nazorat 1.Kichik shakldagi duet yoki terset</p> <p>Yakuniy nazorat 1. Jahon yoki o‘zbek kompozitori ansambli</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Muxamedova G. Vokal ansambli. T., 2021. 2. Saidmuxamedova L. vjkalniy ansambl. T., 2023 3. Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish. T., 2014. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev SH.M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-488 b. 2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga

	<p>kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.</p> <p>3. Mirziyoyev SH.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomilash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Resoublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.</p> <p>4. Mirzoeva M. Analiz ispolnyaemix proizvedeniy /V sb. "Voprosi vokal'noy pedagogiki", vqp. 2. M., 1964.-2016</p> <p>5. Xurmatullina R. K. Kamerniy ansambl. Kazan: IFI KFU, 2012.</p> <p>6. Bloem –Hubatka D. The Old Italian Schol of Singing. A Theoretical and practical Guide. London., 1946.</p> <p>7. Miller R.The Structure jf singing. System and art vokal texhnique. USA .,2016.</p> <p>8. A. Varlamov. "Vokalniye ansambli". M., 1986.</p> <p>9. O'zbek, rus va chet el kompozitorlari operalaridan vokal ansambllar.</p> <p>10. O'zbek, rus va chet el kompozitorlarining kamer-vokal ansambllar.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://notes.tarakanov.net/ 2. https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm 3. http://www.classic-online.ru 4. http:// www.operascores.ucoz.com 5. http://www.vnotke.com 6. http:// www.imslp.org 7. http://www.classic-music.ru 8. http://www.krugosvet.ru 9. http:// www.mus-info.ru
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» <u>08</u> dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Tuzuvchi: Muxamedova G.I. – O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedراسi professori</p>

9.	Taqrizchilar: Sultonov N.N.- O‘zbekiston xalq artisti, O‘zDK “Akademik xonandalik va opera tayyorlovi” kafedrası professori Saidmuxamedova L.Z. - O‘zDK “Akademik xonandalik va opera tayyorlovi” kafedrası dosenti v.b.
----	---

